

## GIDROPRESSLAR VA ULARDA KECHADIGAN TEXNOLOGIK JARAYONLAR

**Botiraliyev Axrorbek Odiljon o‘g‘li**  
Andijon mashinsozlik Instituti, talabasi

Gidropresslar gidrostatika qonuni asosida katta kuchlarni xosil qilish uchun foydalaniladi. Bu narsa presslash, shtamplash, bolgalash, materiallarni sinash va boshqa ishlar uchun zarur. Gidropresslar diametrлari xar xil, o‘zaro tutashtirilgan ichki silindrдан iborat bo‘lib, birinchi kichik silindrda diametri d<sub>1</sub>, katta selindrda esa diametri d<sub>2</sub> ga teng bo‘lgan ikki porshenъ xarakatlanadi. Kichik porshenga OAV richag orqali kuch qo‘yiladi. Katta porshenga stol o‘rnatalib, bu stol bilan D devor orasiga presslanuvchi buyum qo‘yiladi. Richag qo‘l bilan yoki dvigatelъ yordamida xarakatga keltiriladi. Bu xolda kichik porshenъ kuch ta’sirida pastga qarab siljiydi va suyuqlikka bosim beradi.. Bu bosim katta selindrga uzatiladi va natijada katta porshen xarakatga keladi.

Zamonaviy presslovchi mashinalar ko‘pchilik xolatlarda individual elektr yuritmalar bilan jixozlanadilar. Bir qator sharoitlarda presslovchi mashinalarda ko‘p dvigatelli yuritmardan xam foydalaniladi.

Presslovchi mashinalar elektr yuritmalarida kuyidagi guruxlarni ajratib olish mumkin:

- 1) maxoviklar bilan jixozlangan mashinalarni bosh elektr yuritmalar;
- 2) mashinalarni bosh maxoviksiz elektr yuritmalar;
- 3) gidropresslarda va bolg‘alarda qo‘llaniladigan nasoslar va kompressorlar elektr yuritmalar;
- 4) mexanik va gidravlik presslar yordamchi mexanizmlari elektr yuritmalar.

Presslovchi mashinalar yuritmalarini oxirgi uchta guruxlari uchun elektrosvigatellalar quvvatini xisoblash va rusumini tanlash xech qanday xususiyatlarga ega emaslar va boshqa ishlab chiqarish mexanizmlariga o‘xshash usulda amalga oshiriladidilar. Barcha presslovchi mashinalarga xos bo‘lgan ba’zibir xususiyatlar shundan iboratki, tashqi muxitni zararli ta’siridan ximoya usullari bo‘yicha elektrosvigatellarni tuzilishini tanlashdan iborat, chunki bunday elektr yuritmarni ko‘p xolatlarda silkinish va zarbalar sharoitida, qaynoq sexlar muxitlarida ishlashiga to‘g‘ri keladi. Shuninsh uchun ko‘pchilik presslovchi mashinalarni elektrosvigatellari yopiq shamollatiluvchi, ba’zi xollarda esa, xatto yong‘in va portlashdan ximoyalangan tizimlarda bo‘lishlari kerak.

Xozirgi kunda turli sanoat korxonalari, shuningdek mashinasozlik korxonalarida xam turli maxovikli, maxoviksiz, nasoslar va kompressorlar elektr yuritmalar keng tarqalgan. Bunga misol qilib 20 t li gidravlik press 2469 va 40 t. li gidravlik press 2135-1M larni olish mumkin. Ular xozirgi kunda sanoat korxonalari ta’mirlash sexlarida, tumanlardagi qishloq xo‘jalik mashinalari va avtomobilarga servis xizmat ko‘rsatadigan ustaxonalarda turli to‘g‘rilash, bukish va sh.o‘ operatsiyalarni bajarish uchun qo‘llanilmoqda. Gidravlik presslar turli materiyali namuni va detallarda siqilish va bukilishga statik sinashlar o‘tkazish uchun qo‘llaniladi, 10,50 va 500 t. li maksimal yuklanishli 2PG-10, 2PG-50 va 2PG-500 rusumli presslar keng tarqalgan. Siqilishga sinash o‘tkaziladigan bo‘lsa namuna pastki tayanchga o‘rnataladi, yuqorigi tayanchni shturval bilan sinalayotgan namunaga tekuncha tushiriladi. Namunani yuklanishini ishchi silindrni pastki qismiga moyni xaydash bilan amalga oshiriladi, bunda porshenъ silindr dan siljilib pastki plitani ko‘taradi.

Yuklanish kattaligini kuch o‘lchash qurilmasini siferblat shkalasi bo‘yicha aniqlanadi. Bukilishga sinalganda esa pastki plita namuna va qisadigan rolikni o‘rnatish uchun ko‘chma tayanchi bor moslama o‘rnataladi.

**Xulosa.** Xozirgi kunda turli sanoat korxonalari, shuningdek mashinasozlik korxonalarida xam turli maxovikli, maxoviksiz, nasoslar va kompressorlar elektr yuritmalar keng

tarqalgan. Bunga misol qilib 20 t li gidravlik press 2469 va 40 t. li gidravlik press 2135-1M larni olish mumkin. Ular xozirgi kunda sanoat korxonalari ta'mirlash sexlarida, tumanlardagi qishloq xo'jalik mashinalari va avtomobilarga servis xizmat ko'rsatadigan ustaxonalarda turli to'g'rilash, bukish va sh.o' operatsiyalarni bajarish uchun qo'llanilmoqda.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жалилов Н.И. Металларни кесиш назарияси асослари, металл кесувчи станоклар ва асбоблар. Т.: “Талқин”, 2006 й.
2. Некрасов С.С. Обработка материалов резанием. М.: Агропромиздат, 1988 г.
3. Перегудов Л.В. ва бошқалар. Автоматлаширилган корхона станоклари. Т.: “Ўзбекистон”, 1999 й.
4. Пястолов А.А., Ерошенко Г.П. Эксплуатация электрооборудования. М.: Агропромиздат, 1990 г.